ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN AVTOPSIXOLOGIK LIRIKASIDA "IZTIROB" TUYG'USI

Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-bosqich magistri ***Toshpo'latova Iroda***

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Sharq olamining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur va G'arb olamining yangi davrini boshlab bergan kuychisi Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodidagi mushtarakliklar bayon qilingan. Ikki ijodkor ikki davrda va ikki muhitda yashagan bo'lsa-da, ularning lirikasidagi sog'inch, iztirob, sevgi, muhabbat, jasorat, bardamlik tuyg'ulari bir-birini bog'lab turadi. Zahiriddin Muhammad Boburning she'riyatida mumtoz sharq ohanglari sezilib tursa, Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodida romantizmning kurtaklarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Aleksandr Sergeyevich Pushkin, erkinlik, lirika, qiyosiy tahlil, ruhiy kechinmalar, sog'inch, avtopsixologik va ijroviy lirika.

ANNOTATION. This article describes the commonalities in the work of the great figure of the Eastern world, Zakhiriddin Muhammad Babur, and the poet Alexander Sergeyevich Pushkin, who ushered in a new era in the Western world. Although the two creators lived in two eras and in two environments, the feelings of longing, suffering, love, affection, courage, endurance in their lyrics connect each other. While classical oriental melodies are felt in the poetry of Zakhiriddin

Muhammad Babur, we can see the buds of romanticism in the work of Alexander Sergeyevich Pushkin.

Keywords: Zakhiriddin Muhammad Babur, Alexander Sergeyevich Pushkin, freedom, lyrics, comparative analysis, spiritual experiences, longing, autopsychological and performance lyrics.

АННОТАЦИЯ. В данной статье описываются общие черты в творчестве великой фигуры восточного мира, Захириддина Мухаммада Бабура, и поэта Александра Сергеевича Пушкина, положившего начало новой эре в западном мире. Хотя оба творца жили в разные эпохи и в разной среде, чувства тоски, страдания, любви, привязанности, мужества, стойкости , отраженные в их лирике, связывают их воедино. В поэзии Захириддина Мухаммада Бабура ощущаются классические восточные мелодии, а в творчестве Александра Сергеевича Пушкина можно увидеть зачатки романтизма.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Александр Сергеевич Пушкин, свобода, лирика, сравнительный анализ, духовные переживания, тоска, автопсихологические и исполнительские тексты песен.

Lirika janri boshqa janrlarga nisbatan insonlarning ichki dunyosiga tez kirib boradi va ularning qalbidagi yashirin hislarini qayta alanga ostiga oladi. Lirikaning paydo bo‘lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Lirik janrlar tasnifi haqida professor B.Sarimsoqov quyidagilarni yozadi: “Arastu poeziyani (adabiyotni) turlarga bo‘lganda amal qilgan bosh prinsip mimessis, voqelikka taqlid qilish, uni qayta yaratish bo‘lgan. Biroq mimessis oddiy o‘xshatish emas. Ushbu tushuncha asosida: 1) voqelikni qayta, ichki idrok etish asosidagi inson ijodi; 2) bunday ijod esa ongli zot bo‘lgan faqat inson tabiatiga xos; 3) shu xususiyati

bilan u boshqa tirik mavjudotdan ajralib turadi; 4) insonga zavq beruvchi ijod; 5) mana shu xususiyat bilan inson dastlabki bilimlarini oladi; 6)inson aks ettirgan narsa yaxlit va fikrlashga undaydi; 7) umumlashtiradi; 8)anglab etilgan; 9) qayta idrok etilgan narsa; 10) u yoki bu nuqtai nazar; 11) maishiy-betaraf; 12) obraz asosida yotgan voqelik (proobraz) kabi bir qator yaxlit olganda, real-voqelikka taqliddan yaratilishga olib boruvchi ijodiy jarayonning barcha talablari yotadi"[2;300]. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda lirik asarlar ikkiga: avtopsixologik va ijroviy lirikaga ajratiladi. Avtopsixologik lirika -bu shaxsning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini, o'y-fikrlarini va tajribalarini ifoda etadigan adabiy janr bo'lib, uning kelib chiqishi va taraqqiyoti asrlar davomida insoniyatning o'zini anglash va ichki dunyosini tushunishga bo'lgan intilishidan kelib chiqadi. Shoirlar shaxsiy his-tuyg'ularni, ijtimoiy muammolarni, insoniyatning qiyinchiliklari va zamonaviy hayotning ta'sirini aks ettirishda ushbu janrdan foydalanishda davom etishmoqda [1; 135]. Zahiriddin Muhammad Bobur va Aleksandr Sergeyevich Pushkinning she'riyatidagi deyarli barcha hissiyotlar o'quvchi kitobxonning ichki olami bilan singishib ketadi. Ayniqsa, erk, iztirob va muhabbat tuyg'ulari inson qalbini larzaga soladi. Zahiriddin Muhammad Boburning :

"Necha davron g'ussasi bo'lg'ay mening jonimg'a xos,
Koshki o'lsam, dog'i bu g'ussadin bo'lsam xalos!
Ohu vovaylo – surudum, dardu g'am – hamsuhbatim,
Boda – ashkim qoni, kim ko'rdi muningdek bazmi xos?
Gar shikastim bo'lsa sust ag'yordin, ta'n etmangiz –
Kim, shikastig'a sabab almosning bordur rasos.
Oshiq o'lg'och, bexudu devona bo'ldum, bilmadim –

Kim, pari ruxsoralar ishqiga bu ermish xavos.
Xublarni ko'z ko'rub, qon qildi Bobur bag'rini,
Emdi ko'zdin qon to'karmenkim, budur anga qasos"[3;].

Bu keltirilgan g'azalida o'zining iztiroblari, yaqin insonlarining xiyonatlari, chekkan dard va alamlari qanchalik kuchli ekanligi va bu dardli hayotdan o'limni afzal bilishi haqida bayon qilingan. Bobur sog'inch va ayriliq yo'lida azob chekkan bo'lsa, Aleksandr Sergeyevich Pushkin quyidagi keltirilgan she'rida muhabbatdan chekilgan va ayriliq azobida yurgan oshiqning chekkan iztiroblari keltirilgan:

"Kunlarim ohista sudralib o'tar,
Munglug' ko'nglum uchun har zum beomon ,
Bevaqt sevgi dardi ortib ketar,
Tentak xayollarim qo'zg'ar hayajon.
Ammo sukutdaman, chiqmas fig'onim;
Yig'layman ko'z yoshim menga ovunchoq,
Qayg'u panjasida qolgan bu jonim
Shundan achchiq nash'a topadi har choq.
Hayot daqiqasi ! Ucha ber , mayli,
Bexuda xayollar,yo'q bo'l zulmatda!
Azizdir ishqimning azobli yo'li,
Mayli, o'lsam o'lay shu muhabbatda[2;50].

Pushkin she'rlaridagi iztirob muhabbatdan kuygan yigit timsoli ortida yashiringan o'zining dard o'tida yoqilgan tuyg'ularidir. Pushkin bu she'rlarni yozish jarayonida ham eng kichik she'rlarini ham qayta-qayta tahrir

qilingan[5;161], bu esa kitobxonning ruhiyatiga silliq, hech qanday ortiqcha jilvalanishsiz, sodda va sof holatda ta'sir etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur avtopsixologik lirikasida hissiy tasvir uslubidan ko'ra haqqoniy tasvir uslubi ustunlik qiladi. Nafaqat yuqorida keltirilgan g'azallarida balki uning boshqa g'azallarida ham buni ko'rishimiz mumkin. G'azallarida reallikka asoslangan dalillarni ko'p ko'ramiz. Bobur mumtoz she'riyatning eng gullagan vaqtida ijod qilishiga qaramay, davr nuqtayi nazardan , tili juda sodda va tushunarlidir. Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodida ham ko'rishimiz mumkinki, she'rlaridagi soddalikni va o'ziga xos hayotiy o'xshatishlarning borliqdagi mavjudlikka ko'proq urg'u berilganligini.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Ikki buyuk shoir ijodida ba'zi mushtarakliklarni qiyoslashda, ularning yashagan davridagi siyosiy va ijtimoiy muhit, janrlardagi o'zgarishlar, ularning ijtimoiy mavqeyidagi tafovutlarga ham e'tibor berish lozim. Ammo ikki jahon gavharning ham tilining soddaligi va nafisligi, ifoda uslubining o'ziga xosligi hamda tuyg'ularning o'zaro yaqinligi ularning ijodini qiyosiy tahlil asosida o'rganishda yengillik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фёдор Достоевский. Ойдин тунлар.-Тошкент: Anorbooks, 2022.
2. Ziyo.uz
3. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

5. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
6. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
7. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
8. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
9. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
10. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2)